

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 11 | **pp.** 54-61 | **ISSN**: 2181-1865
Available online https://finance.tsue.uz/index.php/afa

QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI BARQAROR RIVOJLANISH STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Tulovov Erkinjon To‘lqin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: e.tulovov@tsue.uz
Orcid: 0009-0009-6599-912X

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini barqaror rivojlanish standartlari asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Qurilish sohasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) omillarining moliyaviy natijalar, shartnomaviy majburiyatlar va xo‘jalik faoliyati samaradorligiga ta’siri yoritilgan. Xalqaro barqarorlik standartlari, auditorlik standartlari va O‘zbekiston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlari o‘rganilgan. Qurilish-pudrat tashkilotlarida ESG ma’lumotlarini auditorlik tekshiruviga integratsiyalash, muhimlik darajasini baholash, risklarni aniqlash va auditorlik dalillarini to‘plash bo‘yicha takomillashtirilgan metodik yondashuv taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *qurilish-pudrat tashkilotlari, auditorlik tekshiruvi, barqaror rivojlanish, ESG, IFRS S1, IFRS S2, ISSA 5000, auditorlik riski, muhimlik, ekologik majburiyatlar, qurilish shartnomalari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования аудита в строительных и подрядных организациях на основе стандартов устойчивого развития. Особое внимание уделяется влиянию факторов экологического, социального и корпоративного управления (ESG) на финансовые результаты, договорные обязательства и экономические показатели в строительном секторе. Изучаются международные стандарты устойчивого развития, стандарты аудита и соответствующие нормативно-правовые акты Республики Узбекистан. Предлагается усовершенствованный методологический подход к интеграции информации ESG в аудит строительных и подрядных организаций, оценке существенности, выявлению рисков и сбору аудиторских доказательств.*

Ключевые слова: *строительные и подрядные организации, аудит, устойчивое развитие, ESG, IFRS S1, IFRS S2, ISSA 5000, аудиторский риск, существенность, экологические обязательства, строительные контракты.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of improving audits in construction and contracting organizations based on sustainable development standards. The impact of environmental, social and corporate governance (ESG) factors on financial results, contractual obligations and economic performance in the construction sector is highlighted. International sustainability standards, auditing standards and relevant regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan are studied. An improved methodological approach is proposed for*

integrating ESG information into the audit of construction and contracting organizations, assessing materiality, identifying risks and collecting audit evidence.

Keywords: *construction and contracting organizations, audit, sustainable development, ESG, IFRS S1, IFRS S2, ISSA 5000, audit risk, materiality, environmental obligations, construction contracts.*

Kirish.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda korxonalarning moliyaviy natijalari bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayon, ayniqsa, qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatida alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki qurilish ishlari tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish, mehnat xavfsizligi, mehnat munosabatlari hamda uzoq muddatli shartnomaviy majburiyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini an’anaviy moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan cheklash ayrim muhim risklarning o‘z vaqtida aniqlanmasligiga olib kelishi mumkin. Masalan, qurilish obyektida ekologik talablarning buzilishi, mehnat xavfsizligiga rioya qilinmasligi yoki chiqindilarni boshqarish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligi kelgusida qo‘shimcha xarajatlar, jarimalar, sud da’volari va qurilish muddatlarining uzayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, barqaror rivojlanish standartlarini auditorlik tekshiruvlariga integratsiyalash nafaqat ESG ma’lumotlarining ishonchliligini baholash, balki moliyaviy hisobotdagi muhim buzib ko‘rsatishlar risklarini aniqlashning ham samarali vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalishda muhim normativ-huquqiy asos shakllanmoqda. Xususan, 2026-yil 4-maydagi 221-son qarorda barqaror rivojlanish va ESG tamoyillarini joriy etish, barqarorlik hisobotlarini tayyorlash hamda ularni mustaqil tashqi tasdiqlash masalalari belgilangan. Mazkur hujjatda tegishli korxonalar uchun xalqaro standartlar asosida barqarorlik ma’lumotlarini tasdiqlash va sifat nazoratini tashkil etish bo‘yicha talablar nazarda tutilgan [1].

Adabiyotlar sharhi.

Qurilish sohasida barqarorlik hisobotlarini o‘rganishga bag‘ishlangan muhim tadqiqotlardan biri Cortes, Traxler va Greiling (2023) tomonidan amalga oshirilgan. Mualliflar qurilish sanoatida barqarorlik hisobotlari bo‘yicha 67 ta ilmiy maqolani tizimli tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qurilish korxonalarining barqarorlik ma’lumotlarini oshkor etish sabablari asosan iqtisodiy manfaatlar, manfaatdor tomonlar talablari va ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog‘liq. Shuningdek, barqarorlik hisobotlarining mazmuni va sifati korxonalar kesimida sezilarli farq qilishi aniqlangan. Mualliflar barqarorlik hisobotlaridan samarali foydalanish uchun ularni korxona strategiyasi va boshqaruv jarayonlari bilan uzviy bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi [2].

Kazemi, Elamer, Theodosopoulos va Khatib (2023) tomonidan Journal of Business Research jurnalida e’lon qilingan tadqiqotda qurilish sanoatida barqarorlik hisobotlari bo‘yicha 150 ta ilmiy maqola, 73 ta jurnal kesimida tizimli tahlil qilingan. Mualliflar tadqiqotlarni barqarorlik ko‘rsatkichlarini baholash, hisobotlarni shakllantirish omillari,

strategik boshqaruv va hisobotlarning natijalari kabi yo‘nalishlarga ajratgan. Tadqiqotda qurilish sohasida barqarorlik hisobotlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy yutuqlar bilan birga, metodologik va nazariy bo‘shliqlar ham mavjudligi qayd etilgan [3].

Shahid, Sabelfeld va Johansson (2024) tomonidan Journal of Cleaner Production jurnalida chop etilgan tadqiqot qurilish va ko‘chmas mulk sohasidagi barqarorlik hisobotlariga bag‘ishlangan. Mualliflar Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalaridan tanlangan 49 ta ilmiy maqolani tahlil qilgan. Tadqiqotda hisobotlarning mazmuni va shakllaridagi farqlar, ularni tayyorlashdagi amaliy to‘siqlar hamda barqarorlik hisobotlarini joriy etishga ta’sir qiluvchi omillar aniqlangan. Mualliflar sohada hisobotlarni standartlashtirish va ularni shakllantirish jarayonlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi [4].

Barqarorlik hisobotlarini mustaqil tasdiqlash masalasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ham muhim natijalar mavjud. Sustainability assurance practices: a systematic review and future research agenda nomli tadqiqotda 1993–2021-yillar oralig‘ida chop etilgan 94 ta ilmiy maqola tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mustaqil tasdiqlash barqarorlik hisobotlarining ishonchliligini oshirish, korporativ obro‘ni mustahkamlash hamda korxonalarda rejalashtirish, monitoring va hisobdorlik jarayonlarini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, xususiy korxonalar va ayrim institutsional muhitlarda barqarorlik hisobotlarini tasdiqlash amaliyotiga oid tadqiqotlar yetarli emasligi qayd etilgan [5].

Yan, Jia, Chen va Yan (2022) tomonidan Journal of Cleaner Production jurnalida chop etilgan tadqiqotda barqarorlik hisobotlarini mustaqil tasdiqlash jarayoni 87 ta ilmiy maqola asosida o‘rganilgan. Mualliflar tasdiqlash jarayonini beshta bosqichga ajratgan: tasdiqlovchini tanlash, axborotni aniqlash, dastlabki saralash, tekshirish va baholash. Shuningdek, vaqt va xarajatlar, axborot tizimlarining yetarli rivojlanmaganligi kabi muammolar qayd etilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, hujjatli tekshiruv, riskka asoslangan yondashuv, analitik amallar, taqqoslash va umumlashtirish usullarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Tadqiqotning normativ-metodologik asosini IFRS S1 va IFRS S2 barqarorlik standartlari, Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqilgan ISSA 5000 standarti hamda O‘zbekiston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

IFRS S1 standarti korxonalardan barqarorlik bilan bog‘liq, ularning pul oqimlari, moliyalashtirish imkoniyatlari yoki kapital qiymatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan risklar va imkoniyatlar haqida axborot ochiqlashni talab qiladi. IFRS S2 esa iqlim bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlarni yoritishga qaratilgan [7; 8].

ISSA 5000 standarti barqarorlik ma’lumotlarini tasdiqlash bo‘yicha barcha sohalar va turli kasbiy malakaga ega amaliyotchilar uchun mo‘ljallangan umumiy xalqaro talablarni belgilaydi. Standart 2026-yil 15-dekabrdan boshlanadigan hisobot davrlari bo‘yicha kuchga kiradi, undan oldin ixtiyoriy foydalanishga ruxsat etiladi [9].

Shuni ta’kidlash lozimki, IFRS S1 va IFRS S2 moliyaviy hisobotni tayyorlash standartlari emas, balki barqarorlik bilan bog‘liq moliyaviy axborotni ochiqlash standartlaridir. ISSA 5000 esa bunday axborotni mustaqil tasdiqlashga taalluqlidir. Ularni bir-biridan farqlash auditorlik metodikasini to‘g‘ri shakllantirish uchun muhim hisoblanadi.

Qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatida ESG omillari moliyaviy hisobotning bir nechta elementlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ekologik omillar qurilish maydonida chiqindilarni boshqarish, suv va energiya resurslaridan foydalanish, havoga chiqariladigan zararli moddalar hamda yer maydonlarini tiklash bilan bog‘liq majburiyatlarni qamrab oladi.

Ijtimoiy omillar xodimlarning mehnat xavfsizligi, ish vaqti hisobi, ish haqi, mehnat shartnomalari va subpudratchilar faoliyatida mehnat talablariga rioya etilishi bilan bog‘liq.

Korporativ boshqaruv omillari esa qurilish shartnomalarini boshqarish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi nazorat, xaridlar shaffofligi va ichki nazorat tizimining samaradorligini o‘z ichiga oladi.

1-jadval.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida ESG omillari va auditorlik tekshiruvining o‘zaro bog‘liqligi.[1]

ESG yo‘nalishi	Qurilishga xos risk	Moliyaviy hisobotga ta’siri	Auditorlik amali
Ekologik	Chiqindilarni boshqarish talablarining buzilishi	Jarima, zaxira va majburiyatlarning noto‘g‘ri baholanishi	Ekologik hujjatlar, jarimalar va xarajatlarni tekshirish
Ekologik	Qurilish maydonini tiklash majburiyati	Kelgusidagi majburiyatlarning hisobga olinmasligi	IAS 37 bo‘yicha majburiyatlarni baholash
Ijtimoiy	Mehnat xavfsizligi talablarining buzilishi	Jarima, sud xarajatlari va zaxiralar	Hodisalar, da’volar va tegishli xarajatlarni tekshirish
Ijtimoiy	Ish vaqti va ish haqi ma’lumotlarining buzilishi	Mehnat xarajatlarining noto‘g‘ri hisoblanishi	Tabel, ish haqi va bank to‘lovlarini solishtirish
Boshqaruv	Subpudratchilar bilan bog‘liq nazorat zaifligi	Xarajatlar va kreditorlik qarzlarining noto‘g‘ri aks ettirilishi	Shartnomalar, bajarilgan ishlar dalolatnomalari va to‘lovlarni tekshirish
Boshqaruv	Xaridlar va manfaatlar to‘qnashuvi	Xarajatlarning asossiz oshirilishi	Yetkazib beruvchilar, narxlar va tasdiqlash jarayonlarini tekshirish

[1] Muallif tomonidan IFRS S1, IFRS S2, IAS 37 hamda xalqaro auditorlik standartlari asosida ishlab chiqilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, ESG omillari auditorlik tekshiruvining alohida yo‘nalishi bo‘lishi bilan birga, moliyaviy hisobotdagi aktivlar, majburiyatlar, xarajatlar va daromadlarning ishonchliligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, qurilish tashkiloti ekologik talablar buzilishi sababli jarimaga tortilgan bo‘lsa, mazkur holat nafaqat ESG hisobotida, balki moliyaviy hisobotda tegishli xarajat yoki majburiyat sifatida ham aks ettirilishi lozim. Shu sababli auditor ekologik ma’lumotlarni tekshirish jarayonida ularning moliyaviy hisobotga ta’sirini ham baholashi zarur.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini takomillashtirish uchun ESG risklarini auditorlik jarayonining barcha bosqichlariga integratsiyalash maqsadga muvofiq.

1-bosqich. Korxona faoliyati va barqarorlik risklarini o‘rganish. Auditor qurilish-pudrat tashkilotining faoliyat turi, qurilish obyektlari, shartnomalar muddati, subpudratchilar ulushi, ekologik talablar va mehnat xavfsizligi bilan bog‘liq majburiyatlarini o‘rganadi.

2-bosqich. ESG ma’lumotlarini shakllantirish jarayonini baholash. Korxonada barqarorlik ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, tekshirish va hisobotda aks ettirish jarayonlari o‘rganiladi. Ma’lumotlar manbalari, mas’ul xodimlar va ichki nazorat tartiblari aniqlanadi.

3-bosqich. Muhimlik darajasi va auditorlik risklarini aniqlash. Auditor ESG ma’lumotlaridagi ehtimoliy buzib ko‘rsatishlarning moliyaviy hisobotga va barqarorlik hisobotidan foydalanuvchilarning qarorlariga ta’sirini baholaydi.

4-bosqich. Auditorlik dalillarini to‘plash va tekshirish. Qurilish obyektlari bo‘yicha birlamchi hujjatlar, ekologik hisobotlar, mehnat xavfsizligi hujjatlari, ish haqi hisob-kitoblari, shartnomalar va to‘lovlar o‘zaro solishtiriladi.

5-bosqich. Aniqlangan kamchiliklarni baholash va xulosa tayyorlash. Auditor aniqlangan buzib ko‘rsatishlarni ularning muhimligi va ta’sir doirasi bo‘yicha baholaydi, tegishli hisobotlarni tayyorlaydi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Mazkur yondashuvda moliyaviy hisobot auditi bilan barqarorlik ma’lumotlarini tasdiqlash bir-birini to‘ldiradi, biroq ularning maqsadi, mezonlari va auditorlik xulosalari alohida saqlanadi.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida ESG risklarini baholash uchun auditorlik riskining an’anaviy modelidan foydalanish mumkin:

$$\mathbf{AR = IR \times CR \times DR}$$

Bu yerda: AR — auditorlik riski; IR — ajralmas risk; CR — nazorat riski; DR — aniqlanmaslik riski.

ESG omillarini hisobga olgan holda ajralmas risk va nazorat riskini baholashda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarining ta’sirini alohida tahlil qilish taklif etiladi. Buning uchun quyidagi metodik yondashuvdan foydalanish mumkin:

$$\mathbf{R_ESG = \Sigma\ (w_i \times p_i \times s_i)}$$

Bu yerda: R_ESG — ESG risklarining yig‘ma bahosi; w_i — tegishli riskning muhimlik koeffitsiyenti; p_i — risk yuzaga kelish ehtimoli; s_i — riskning moliyaviy yoki operatsion ta’sir darajasi.

Mazkur formula muallif tomonidan ESG risklarini tizimlashtirish uchun taklif etilgan metodik yondashuv hisoblanadi. Undagi koeffitsiyentlar xalqaro standartlarda belgilangan majburiy ko‘rsatkichlar emas. Ularni amaliyotda qo‘llash uchun korxona faoliyati, auditorlik dalillari va tegishli baholash mezonlari asosida aniqlash talab etiladi.

Masalan, qurilish obyektida mehnat xavfsizligi talablarining buzilishi ehtimoli yuqori va uning moliyaviy ta’siri katta bo‘lsa, auditor mazkur yo‘nalishga ko‘proq tekshiruv amallarini yo‘naltirishi mumkin.

Shuningdek, ESG risklarini baholash natijalari auditorlik tanlovini shakllantirish, tekshiruv muddatlarini rejalashtirish va auditorlik resurslarini taqsimlashda qo‘llanishi mumkin.



1-rasm. Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini barqaror rivojlanish standartlari asosida takomillashtirishga qaratilgan quyidagi metodik takliflar ishlab chiqildi.[2]

Barqaror rivojlanish standartlari asosida auditorlik tekshiruvlarini takomillashtirishda quyidagi amaliy yo‘nalishlarni joriy etish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, qurilish obyektlari bo‘yicha ekologik xarajatlar va majburiyatlarning analitik hisobini tashkil etish zarur. Bunda chiqindilarni olib chiqish, qurilish maydonini tiklash, ekologik jarimalar va boshqa tegishli xarajatlar obyektlar kesimida alohida kuzatilishi mumkin.

[2] Muallif ishlanmasi

Ikkinchidan, mehnat xavfsizligi va ish haqi ma’lumotlarini o‘zaro solishtirish mexanizmini joriy etish lozim. Xodimlar ro‘yxati, ish vaqti tabeli, ish haqi hisob-kitobi va bank to‘lovlari o‘zaro taqqoslanishi orqali mavjud bo‘lmagan xodimlar, takroriy to‘lovlar yoki asossiz ish vaqti hisoblanishi kabi risklar aniqlanishi mumkin.

Uchinchidan, subpudratchilar bilan bog‘liq risklarni baholash zarur. Bunda subpudratchining shartnomaviy majburiyatlari, bajarilgan ishlar hajmi, to‘lov hujjatlari va tegishli nazorat dalillari tekshiriladi.

To‘rtinchidan, qurilish shartnomalari bo‘yicha daromadlarni tan olish jarayonida ESG omillarining ta’sirini hisobga olish lozim. Masalan, ekologik talablarning buzilishi sababli qurilish ishlarining to‘xtatilishi yoki shartnoma muddatining uzayishi daromadlarni tan olish, xarajatlarni baholash va shartnoma majburiyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Beshinchidan, auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichida ESG ma’lumotlaridagi aniqlangan kamchiliklarning moliyaviy hisobotga ta’siri alohida baholanishi kerak.

Mazkur takliflar qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvining qamrovini kengaytirish, muhim risklarni o‘z vaqtida aniqlash va hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini barqaror rivojlanish standartlari asosida takomillashtirish moliyaviy hisobot auditi va ESG ma’lumotlarini tasdiqlash jarayonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari qurilish sohasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarining moliyaviy hisobotga ta’sirini hisobga olish auditorlik tekshiruvining sifatini oshirish uchun muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Taklif etilgan metodik yondashuv ESG risklarini aniqlash, muhimlik darajasini baholash, auditorlik dalillarini to‘plash va aniqlangan kamchiliklarning moliyaviy hisobotga ta’sirini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, qurilish obyektlari kesimida ekologik xarajatlar va majburiyatlarning analitik hisobini tashkil etish, mehnat xavfsizligi ma’lumotlarini ish haqi hisob-kitoblari bilan solishtirish hamda subpudratchilar faoliyatini riskka asoslangan yondashuv orqali tekshirish auditorlik amaliyotini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Umuman olganda, barqaror rivojlanish standartlarini auditorlik tekshiruvlariga integratsiyalash qurilish-pudrat tashkilotlarida moliyaviy va nomoliyaviy axborotning ishonchliligini oshirish, risklarni samarali boshqarish hamda manfaatdor tomonlar uchun shaffof axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. 2026-yil 4-maydagi 221-son “Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. https://test.lex.uz/docs/-8171367

2. Cortes, D., Traxler, A. A., & Greiling, D. Sustainability reporting in the construction industry – Status quo and directions of future research. Heliyon, 2023, 9(11), e21682. DOI: 10.1016/j.heliyon.2023.e21682.

3. Kazemi, M. Z., Elamer, A. A., Theodosopoulos, G., & Khatib, S. F. A. Reinvigorating research on sustainability reporting in the construction industry: A systematic review and future research agenda. Journal of Business Research, 2023, 167, 114145. DOI: 10.1016/j.jbusres.2023.114145.

4. Shahid, H., Sabelfeld, L., & Johansson, J. Sustainability reporting in construction and real estate sector: A conceptualization and a review of existing literature. Journal of Cleaner Production, 2024, 477, 143886. DOI: 10.1016/j.jclepro.2024.143886.

5. Sustainability assurance practices: a systematic review and future research agenda. Sustainability, 2021. Maqola matni.

6. Yan, M., Jia, F., Chen, L., & Yan, F. Assurance process for sustainability reporting: Towards a conceptual framework. Journal of Cleaner Production, 2022. DOI: 10.1016/j.jclepro.2022.134156

7. IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. 2023. https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s1-general-requirements/

8. IFRS Foundation. IFRS S2 Climate-related Disclosures. 2023. https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s2-climate-related-disclosures/

9. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). International Standard on Sustainability Assurance 5000, General Requirements for Sustainability Assurance Engagements. 2024. https://www.iaasb.org/publications/international-standard-sustainability-assurance-5000-general-requirements-sustainability-assurance

10. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISSA 5000 Adoption and Implementation. https://www.iaasb.org/consultations-projects/issa-5000-adoption-and-implementation

11. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets.

12. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers.

13. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 315 (Revised 2019), Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.

14. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 330, The Auditor's Responses to Assessed Risks.

15. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISAE 3000 (Revised), Assurance Engagements Other than Audits or Reviews of Historical Financial Information.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)